

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2025
2-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274



Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.
1996-yilda tashkil etilgan.

Tahrir hay'ati raisi:

M.Boltabayev

Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:

M.Esanov

Bosh muharrir:

J.Usmanov

Tahrir hay'ati a'zolari:

L.Abduxalilova

L.Zaripov

S.Xudoyberdiyeva

R.Jo'raqulov

M.Aripov

B.Zaripov

U.Djumaniyazov

T.Axmedov

N.Toshpo'latova

S.Maxsumova

Dizayner:

S.Musamedov

TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

Ozoda Hazratqulova. FILOLOGIK TA'LIMDA O'QUV TOPSHIRIQLARINING HOLATI TAHLILI	3
Furqat Anorboyev. SIYOSIY MODERNIZATSIYA TUSHUNCHASINING RIVOJLANISHIGA DOIR KONSEPTUAL QARASHLAR TAHLILI.....	8
Abrorjon Yarashev. VIZUAL VOSITALAR YORDAMIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ASOSLARI.....	12
Шахноза Алимова. СОВРЕМЕННЫЕ СРЕДСТВА ОБУЧЕНИЯ НА ЗАНЯТИЯХ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНСТРУМЕНТАРИЙ АКТИВИЗАЦИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ	16
Doniyor Jo'lanov, Gulchehra Ulug'berdiyeva. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARI BILAN MATEMATIK KECALAR, MATEMATIK OLIMLAR BILAN UCHARSHUV, OLIMPIADALAR O'TKAZISH REJASINI TUZISH.....	19
Shuhrat Homidov. JINOIY DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNING MAMLAKAT IQTISODIY HAVFSIZLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH	25
Doniyor Jo'lanov, Gulchehra Ulug'berdiyeva. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA QIZIQARLI VA MANTIQUIY MASALALARNI ISHLASH USULLARINI O'RGATISH METODIKASI	28
Yulduz Jurayeva. INTEGRATION WITH MODERN TECHNOLOGIES IN TEACHING GERMAN AND THE ATTENTION GIVEN TO GERMAN IN OUR COUNTRY	34
Умида Нарзуллаева. СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В НЕСПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ	38
Maxammadjon Ro'zikov. PARAMETRLI KVADRAD TENGLAMALARNING BA'ZI XUSUSIYATLARI	41
Ulug'bek Xonkulov. O'QUVCHILARNING TRIGONOMETRIK TENGLAMALARNI YECHISHDA YO'L QO'YADIGAN XATOLARI HAQIDA	47
Anvarjon Rahmatjonov. MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA VIRTUAL VA TO'LDIRILGAN REALLIK TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	53
Nodira Mukhammadieva. DIGITAL MARKETING STRATEGIES FOR PROMOTING REGIONAL TOURISM: TOOLS AND TECHNIQUES.....	56
Rayxan Razakova. KEKSALARNING YOLG'IZLIGINI KAMAYTIRISH VA ULARNI IJTIMOY HAYOTGA QAYTARISH UCHUN PSIXOLOGLAR VA IJTIMOY XIZMAT MUTAXASSISLARIDAN KOMPLEKS YONDASHUV	60
Marxabo Hakimova. TALABALAR MA'NAVIY TIDA MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	63
Iskandar Otabayev. KASBIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA KREDIT MODUL TIZIMINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI	66
Sanobar Ashurova, Zuxra Maxkamova. MAK'TABGACHA TA'LIM TIZIMIDA DUAL TA'LIM MODELINI JORIY ETISH VA INNOVATION BOSHQARUV MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIYA VA AMALIY YONDASHUVLAR	71
Oydina Otabayeva. MAK'TABGACHA TA'LIM PEDAGOG'LARI O'RTASIDA IJTIMOY HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TRENINGLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	76
Ilxomjon Sirojiddinov. PREVENTIV CHORA-TADBIRLAR ASOSIDA KASBIY TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARINING KASBIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI	79
Izzatoy Turdiyeva. MAK'TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR DIAGNOSTIKASI	84
Lola Elmurodova. PEDAGOG'LARNING ILG'OR PEDAGOGIK TAJRIBALARINI TO'PLASH VA AMALIYOTDA QO'LLASH	87
Xolbib Qurbonova. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILAR KOMPETENTLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	90
Гулнора Жамалова. ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	92

Muassislar:

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi*

Manzil: 100095, Toshkent sh.
2-Chimboy ko'chasi, 96-uy.
Telefon: (71) 207-03-41
e-mail: rmxat@edu.uz

**Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot
agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506
raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.**

*Jurnal har oyda o'zbek, rus va ingliz
tillarida elektron shaklda chop etiladi.*

“Ta'lim, fan va innovatsiya” jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining
2015-yil 18-noyabrda 218/5-sonli
qarori, 2018-yil 28-noyabrda
247/6-sonli qarori, 2024 yil 25
dekabrda 365-sonli qarori asosida
quyidagi fanlar kiritilgan:
05.00.00 — Texnika fanlari,
08.00.00 — Iqtisodiyot fanlari,
13.00.00 — Pedagogika fanlari,
19.00.00 — Psixologiya fanlari
23.00.00 — Siyosiy fanlari
bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari
asosiy ilmiy natijalarini chop
etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

“Ta'lim, fan va innovatsiya”
jurnalidan ko'chirib bosish faqat
tahririyatning roziligi bilan amalga
oshiriladi. Maqolada keltirilgan
faktlarning to'g'riligi uchun muallif
mas'uldir. Tahririyat fikri mualliflar
fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to'liq matnini esijournal.uz rasmiy
saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlaringizni
[@esijournalbot](https://t.me/esijournalbot) telegram botiga yuboring.*

Nodiraxon Xatamova. HUQUQ, TIBBIYOT VA GEODEZIYA SOHALARIDA MAXSUS MAQSADLAR UCHUN INGLIZ TILI O'QITISHDA SUN'YI INTELLEKTNING AHAMIYATI	96
Gulasal Usmanova. XOREOGRAFIYA SAN'ATI SOHASIDAGI ILMIY IZLANISHLAR.....	99
Ilhom Mattiyev. TALABALAR JAMOASI SOG'LOM TURMUSH TARZI VA IJTIMOIIY AGENTLAR TA'SIRINING XUSUSIYATLARI	103
Xudoyor Jumanov. XORIJIY VA MAHALLIY ELEKTRON DARSLIKHLARI TAHLILI .	105
Feruza Kadirova. BENEFITS OF IMPLEMENTING WEB-TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING.....	111
Raykhan Aleuova. METHODS OF DEVELOPING PERSONAL COMPETENCE IN PRESCHOOL CHILDREN	115
Vasila Imamjanova. DEVELOPING SPEAKING SKILLS IN FOREIGN LANGUAGES: ORGANIZING SUCCESSFUL COMMUNICATION AMONG STUDENTS.....	118
Shukhrat Salakhitdinov, Daniyar Alimov, Xayrulla Mirzakarimov, Sardor Tursunov. THE ADVANTAGE OF PCI ON NATIVE CORONARY VESSELS VERSUS PCI ON AORTOCORONARY BYPASS GRAFTS AFTER SURGICAL REVASCLARIZATION	121
Lukmon Bekmuratov, Eldor Jumaev. ASSESSMENT OF THE RESULTS OF BONE GRAFTING SURGERIES IN THE ORAL CAVITY: COMPLICATIONS AND OUTCOMES	125
Lukmon Bekmuratov, Eldor Jumaev. PROTOCOL FOR VERIFICATION OF THE TOOTH ROOT APEX DURING A CYSTECTOMY PROCEDURE.....	128
Gulnora Khalmatova. THE HISTORY AND LITERATURE OF THE RUSSIAN LANGUAGE	132
Gulchekhra Razzakova. REAL COMMUNICATION AND INTERACTION IN ENGLISH RATHER THAN ROTE MEMORIZATION OF GRAMMAR RULES	135
Ибодуллохон Солиев. ИНСТИТУЦИОНАЛЬНАЯ АВТОНОМИЯ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА: СИНТЕЗ ГЛОБАЛЬНОГО ОПЫТА И НАЦИОНАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ.....	139
Ikrom Rixsiboyev. OTA-ONALARNING TA'LIMDAGI ISHTIROKI141	
Bekzodbek Madumarov. EKOTSENTRIZM FALSAFASINI TABIATGA TA'SIRI	145
Habiba Xalilova. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUV DARSLARINI LOYIHALASHDA NEONOGIK YONDASHUV DAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	149
Hulkar Rasulova. IJTIMOIIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI JAHON TAJRIBASINING PEDAGOGIK TAHLILI.....	153
Muxammadi Azimov. O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI ASOSIDA TALABALARDA DAXLDORLIK TUYG'USINI RIVOJLANTIRISH MODELI.....	156
Sabina Mahmudova. MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISHNI BOSHLANG'ICH SINF DAN BOSH LASH	161
Mohinur Shodiboyeva. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TABIAT BILAN TANISHTIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ...	164
Ma'suda Eshonqulova. MAKTABGA TAYYORLOV GURUHI BOLALARIDA KONSTRUKSIYALASHGA OID KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH	168
Xusniddin Umarov. BO'LAJAK BOSH LANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING ILMIY-ILMIY-IJODIY KOMPITENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	173
Hilola Shokirova. BO'LAJAK TARBIYACHILARNI GENDER YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI	177
Dilfuza Nosirova. BO'LAJAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI	181
Maftuna Bobokeldieva. THE ROLE OF STUDENT ENGAGEMENT IN TEACHING ENGLISH	186
Shoira Aliyeva. XX ASR BOSHLARIDA JADIDCHILIK G'OYALARINI YOSHLAR TARBIYASIDAGI TA'SIRI	189
Nilufar Abdulazizova, Dilfuza Zokirova. MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TAYYORLOV GURUHLARIDA DIDAKTIK JARAYONLARNI TASHKIL QILISH	193
Mukaddas Karimova. TA'LIMNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'QITUVCHI KASBINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI.....	199
Nasiba Salikhova, Morevs Patriks. INNOVATION METHODS OF DESIGNING ACTIVITIES FOR DEVELOPING STUDENTS' SPEAKING SKILLS IN TEACHING INTERMEDIATE LEVEL CLASSES	206

Bobur Saparov, Malohat To'xtasheva, Asliddin Shokirov, Maftuna Jobborova. ISSIQLIK ENERGETIKA JARAYONLARINI AVTOMATLASHTIRISH VA IOT TIZIMLARI YORDAMIDA REAL VAQT REJIMIDAGI MONITORING SAMARADORLIGI.....	ПОДХОДЫ УПРАВЛЕНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.....
211	304
Dilshod Sohbov. BO'LAJAK INFORMATIKA FANI O'QITUVCHILARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI BO'YICHA ILMIY-TADQIQOT ISHLARINING TIZIMLI TAHLILI.....	Xalima Toshmurodova. MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALAR NUTQINI O'STIRISHDA KOMUNIKATIV MULOQOT O'RNI.....
216	309
Madina Ashirbaeva. KORPUS-LINGVISTIKASINING IJTIMOY ZARURIYATI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI.....	Yashin Narzulloyev. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TYUTORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....
222	314
Altinay Bekpolotova. FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE CHORAL GENRE IN KARAKALPAKSTAN.....	Xabibullo Boyev, Sherzod Adilov. O'ZBEKISTONDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA MOLIALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....
226	318
Avazbek Barotov, Mexriniso Sharipova. MOTIVATSIYA TURLARI VA UNING TA'LIMDAGI ROLI.....	Umidaxon Sodiqova. ALKANLAR MAVZUSINI O'QITISHDA KRITIK VA KREATIV FIRKLASHNI KROSSSENS METODI YORDAMIDA SHAKILLANTIRISH.....
229	323
Odina Fozilova. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TANQIDIY VA IJODIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	Ifrixor Ziyoev. "YANGI O'ZBEKISTON" G'OYASINI AMALGA OSHIRISHDA DAVLATNING BIZNES TUZILMALARI BILAN MUNOSABATLARINING SIYOSIY YO'NALISHLARI.....
233	327
Bekposhsha Dautova. SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA PEDAGOGIK TA'LIMDA KREATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI.....	Azamat Eshmurodov. GIDRAVLIKANI FANINI O'QITISHDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISHDA WEB TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....
236	332
Fotima Abdikarimova. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA POL-ELDER MODELIDAN FOYDALANISH.....	Nilufar Muxammadiyeva. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISINING KASBIY PEDAGOGIK FAOLIYATI MAZMUNI.....
240	337
Эркин Халтурсунов, Махбуба Шерматов. ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ В СТРОИТЕЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: АДАПТАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И СТРАТЕГИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ.....	Ravshan Shaynazarov. TALABALARGA GIDROTEKNIKA INSHOOTLARINI MODELLASHTIRISH DASTURIY VOSITALARI TAHLILI VA ULARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK ASOSLARI.....
243	341
Arofat Xudayberdieva. FIZIKA FANINI TEXNIKA OLIYGOHLARDA O'QITISH MUAMMOLARI VA ASPEKTLARI.....	Ravshan Abdullayev. TA'LIMIY-DASTURLI TUZILMALARNI TIZIMLI LOYIHALASHTIRISHNING PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY TAHLILI.....
248	344
Ishankul Narmuratov. RUS TILI DARSLARIDA MULTIMEDIA RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	O'tkir G'uzarov. "GO'ZAL XULQLAR" ASARINING OILAVIY VA IJTIMOY TA'LIMDAGI TA'SIRI: PEDAGOGIK NUQTAYI NAZARDAN TAHLIL.....
253	349
Bexruz Turdiyev. JADIDCHILIK HARAKATINING TURKISTON SIYOSIY YUKSALISHIDAGI ROLI.....	Madina Halimova. O'QUVCHILARDA TABIIY FANLAR (SCIENCE) ASOSIDA DASTLABKI BILIM VA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....
258	355
Turg'un Xoldarov, Abdukarim Jo'rabae, Umarali Jo'raev. VALEOLOGIYA - SALOMATLIK VA SOG'LOM TURMUSH TARZI HAQIDAGI TA'LIMOTNI TALABALARGA O'RGATISH METODLARI.....	Oliya Nurova. MEXANIZMLAR DINAMIKASI VA ASOSIY MASALALARINI YECHIMLARI.....
262	359
Одилжон Рахматов. СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ КРЫШ ЗДАНИЙ ДЛЯ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СИСТЕМ.....	Olimjon Otamirzaev, Dilnoza Zokirova. TALABALARNING ELEKTROTEKNIKAGA DOIR AMALIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA "KUBIK" METODIDAN FOYDALANISH.....
266	364
Бахтиёр Курамбаев, Отабек Мирзаев, Миржалол Исмоилов. ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОПАШНОГО АГРЕГАТА ДЛЯ МЕЖДУРЯДНОЙ ОБРАБОТКИ ХЛОПЧАТНИКА.....	Sevara Hakimova. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TAMOIYILLARI.....
277	367
Bekzodbek Madumarov. EKOTSENTRIZM FALSAFASINI TABIATGA TA'SIRI.....	Sherjaxon Abdufatayev. O'QUVCHILARNING TAYANCH VA FANGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING O'RNI.....
283	371
Maxliyo Xolmatova. OLIY TA'LIMDA O'QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI BAHOLASH. DARAJA KO'RSATKICHLARI VA ULARNING TAHLILI (DTPI misolida).....	Parvina Ikromova. THE ROLE OF ENOLASE ENZYME IN PRETERM BIRTH.....
287	375
Dilnoza Ergasheva. SHARQ ALLOMALARINING ASARLARI ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLANILISHI.....	Iroda Yusupova. OILAVIY NIZOLAR VA ULARNING IJTIMOY MUNOSABATLARGA TA'SIRI.....
294	379
Nodirbek Yoqubjonov. JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNING RIVOJLANISHIGA JAMOALARNI OMMAVIY JALB ETISH.....	Odina Baxronova. NATYURMORTDAN FOYDALANIB TASVIRLASHNI O'RGANISHDA XOMAKI RASMLAR ISHLASHNING TUTGAN O'RNI.....
297	382
Muhabbat Berdiyeva. MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI O'YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	Shoira Bekchonova. IT TEXNOLOGIYASINI ADABIYOT FANLARIDA QO'LLASHDA O'QITUVCHILARNING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH.....
299	386
Манзура Астанакулова. СОДЕРЖАНИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ	Dilafroz Kenjabayeva. NAFOSAT TARBIYASINING NAZARIY ASOSLARI VA XORIJIY TIL O'QITUVCHILARI UCHUN AHAMIYATI.....
	390
	Dilshod Nabiyev. INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA MA'LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISH.....
	392

amaliy tadqiqotlar olib borishga zamin yaratadi, shuningdek, rus tili ta'limining sifatini yanada oshirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маковецкий, М. П. Интерактивные технологии в обучении русскому языку / М. П. Маковецкий. – СПб.: Издательство СПбГУ, 2019. – 305 с.
2. Шадрина, Н. В. Использование мультимедийных технологий в обучении русскому языку как иностранному / Н. В. Шадрина. – М.: Флинта, 2016. – 275 с.
3. Макарова, Е. А. Современные мультимедийные средства в преподавании русского языка / Е. А. Макарова. – Казань: Казанский федеральный университет, 2019. – 250 с.
4. Петрова, А. В. Развитие речевой компетенции с использованием цифровых образовательных платформ / А. В. Петрова // Вестник педагогики. – 2020. – № 5. – С. 112-118.
5. Литвинова, Ю. И. Дистанционное обучение и мультимедиа в процессе изучения иностранных языков / Ю. И. Литвинова. – Новосибирск: Сибирское научное издательство, 2021. – 220 с.
6. Сорокина, Л. А. Влияние мультимедийных технологий на эффективность изучения русского языка / Л. А. Сорокина // Современные образовательные технологии. – 2018. – № 7. – С. 67-75.
7. Sweller, J. Cognitive Load Theory and Multimedia Learning / J. Sweller // Journal of Educational Psychology. – 1988. – Vol. 80. – No. 3. – P. 257-265.
8. Bruner, J. Toward a Theory of Instruction / J. Bruner. – Harvard University Press, 1966. – 224 p.
9. Jonson, D. W. Active Learning Strategies in Technology-Enhanced Language Education / D. W. Jonson. – New York: Routledge, 2005. – 290 p.
10. Usmonova, N. Multimedia vositalari yordamida chet tilini o'qitishning psixologik asoslari / N. Usmonova // Pedagogik izlanishlar jurnali. – 2022. – № 2. – B. 45-52.

JADIDCHILIK HARAKATINING TURKISTON SIYOSIY YUKSALISHIDAGI ROLI

Bexruz Turdiyev,

Buxoro davlat universiteti, Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası dotsenti,
falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqola jadidlarning demokratik boshqaruv va adolatli jamiyat barpo etish sohasidagi islohotlari masalasi tahliliga bag'ishlanib, ularning ta'lim, matbuot va siyosiy faoliyat orqali mustamlakachilikka qarshi kurashish masalalari yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada jadidlar islohotchilik siyosiy g'oyalarining bugungi O'zbekiston siyosiy yangilanish jarayonlari bilan uyg'unligi o'rganilib, uning demokratik islohot va milliy taraqqiyotga turtki berayotganligi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: taraqqiyot, jadid, islohot, davlat, milliy ozodlik, dastur, siyosiy ong

Аннотация

Данная статья посвящена анализу реформаторской деятельности джадидов в области демократического управления и построения справедливого общества, а также их борьбе с колониальной политикой посредством образования, прессы и политической активности. В статье исследуется взаимосвязь реформаторских идей джадидов с процессами политического обновления современного Узбекистана, а также их влияние на продвижение демократических реформ и национального развития.

Ключевые слова: развитие, джадиды, реформа, государство, национальная независимость, программа, политическое сознание.

Annotation

This article is devoted to the analysis of the reformist activities of the Jadids in the field of democratic governance and the establishment of a just society, as well as their struggle against colonial policies through

education, the press, and political activism. The study explores the connection between the reformist ideas of the Jadids and the processes of political renewal in modern Uzbekistan, as well as their impact on promoting democratic reforms and national development.

Keywords: development, Jadids, reform, state, national independence, program, political consciousness.

Kirish. Jadidchilik XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyo, Qrim, Kavkaz, Volga bo'yi hududlarida shakllanib, harakat yangi zamonaviy maktab, matbuot va taraqqiyotning ilg'or usul va vositalarini yoqlab chiqdi. Jadidchilik Turkiston xalqlarining milliy-madaniy va siyosiy-huquqiy yuksalishida muhim rol o'ynadi. Uning tarafdorlari o'z faoliyat va qarashlari bilan jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy asoslarning eskicha ko'rinishini yangi usullar bilan o'zgartirishga urindilar. Bu harakat umuminsoniy va milliy qadriyatlarga yo'g'rilgan bo'lib, jamiyatning yangicha siyosiy tafakkuri, uning taraqqiyot yo'li va aholi manfaatlarini ifodalay oldi. Uning M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Avloniy, Munavvar Qori, Cho'lon, A.Qodiriy, Is'hoqxon Ibrat, So'fizoda singari namoyondalari Sharq falsafasi an'analari sobiq sovetlar davrida ham saqlab qolib, uni rivojlantirishga urinishdi. Biroq o'sha davrdagi siyosiy vaziyat, ularning kommunistik mafkurasining qurboniga aylanishiga sabab bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Jadidlar yangilik tarafdori sifatida nafaqat milliy qadriyatlarimizni, balki umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etib, mintqa aholisi manfaatlariga javob beradigan va ijtimoiy taraqqiyotning zaruriy ehtiyojlarini to'la qondira oladigan innovatsion harakat va intilish sifatida ravnaq topishgan. Jadidchilik asosi ma'rifatparvarlikdan siyosiy e'tiqodgacha bo'lgan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tgan. Ular o'z tarixida ikkita bosqich: birinchisi, ma'rifatparvarlik, ikkinchisi, siyosiy bo'lib, ularning milliy davlatchilik qarashlarini shakllantirishga o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan [1]. Jadidlar ruhiyatidagi o'zgarish va yangilanishlar esa, o'z-o'zidan o'sha davr yoshlari dunyoqarashida katta ishonch va umid uyg'ota olgan. Yuksalish uchun albatta, ilm-fan taraqqiyoti, tafakkur erkinligini his qilgan jadidlar qo'rqmay harakat qilib, ilm-ma'rifatning jamiyat taraqqiyotidagi roliga katta e'tibor qaratishgan. Turkistonliklarni diniy va dunyoviy ilmlardan, zamonaviy fan yutuqlardan bahramand bo'lishiga chaqirishgan [2].

Shu bois bo'lsa kerak, jadidchilik harakati o'zining innovatsion g'oyalari bilan qancha vaqt o'tsada, o'zining falsafiy mazmun-mohiyati va dolzarbligini yo'qotmayapti. Aksincha o'tgan yillar davomida Yangi O'zbekiston ijtimoiy taraqqiyoti ideosferasini insonparvarlik g'oyalari bilan ezgulikka, yangilikka, adolatparvarlikka, ilm-ma'rifat va Uchinchi Renessansni bunyod etishga chorlab kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, "Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir" [3]. Darhaqiqat, bugun yurtimizni dunyodagi rivojlangan davlatlar, xalqimizni taraqqiy topgan millatlar qatoridan munosib joy olishi – jadidchilik g'oyasining asosini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, ushbu bunyodkor g'oyalar – Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessanni bunyod etish g'oyasi bilan hamohang bo'lmoqda. Ushbu g'oyani hayotga tatbiq etish uchun millat oydinlari, birinchi navbatda, yangi usulda ta'lim-tarbiya, jahonda kechayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlardan xabardor, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalash yo'lidan borishgani ham bugungi islohotlarimiz bilan uyg'un ekanligidan dalolat beradi. Bu yo'lda Abdulla Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori, Ubaydulla Xo'jayev, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Abdurauf Fitrat, Ishoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho'lon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' ma'rifatparvarlar milliy uyg'onish harakatining rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

Ular yangi usul maktablari bilan bir qatorda, xalq siyosiy dunyoqarashi va yashash tarzini o'zgartirishga yo'naltirilgan gazeta-jurnallar, nashriyot va kutubxonalar, teatrlar faoliyatini yo'lga qo'yidilar. Yoshlarni rivojlangan davlatlarga o'qishga yuborib, kadrlar masalasiga e'tibor qaratdilar. Shuningdek, davlat boshqaruvi, sud-huquq, moliya, soliq tizimlari va yer masalalarini isloh qilish bo'yicha g'oyaviy va amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Xullas, jadidlar jamiyat ideosferasini yangilash, millatimiz dunyoqarashini o'zgartirish va milliy taraqqiyotga erishish, o'zlarining innovatsion harakat dasturlarini ro'yobga chiqarish borasida bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Ammo ular o'sha davrdagi siyosiy tuzum va vaziyat sababli o'z dasturlariga

qo'ygan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga muvaffaq bo'la olmadilar. O'sha davrdagi siyosat va tuhmatlar sabab dastlab rus podsholigi, keyinchalik sho'rolar hukumati siyosatining qurboniga aylanishdi. Ularning milliy ozodlik va xalq baxt-saodati uchun jonlarini fido qilish yo'lidagi ilmiy-ma'rifiy, g'oyaviy, mafkuraviy meroslari bugungi davr taraqqiyotida muhim poydevor vazifasini o'tamoqda.

XX asrning yirik siyosiy arboblardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919 yy) hisoblanib, u mamlakatni tanazzuldan, xalqni siyosiy bo'shliqdan chiqarish uchun ilm-fanni rag'batlantirish zarurligini uqtiradi. Uning fikricha, millat va jamiyat ideosferasi yuksalishi uchun: "Har zamon uchun asbobi isloh va taraqqiyi ionat boshqarur. Millatg'a ionat emoq uchun, islohi maktab va mudarris uchun, rusiy maktablarig'a bola tayyorlamoq uchun, dehqon va san'atkorlarni rivoj bermoq uchun "Jamiyati xayriya", "Nashri maorif", qiroatxonalar, fo'ndlar, kurjuklar, jaridalar, majallalar, nashriyotlar... kerakdur" [4].

Behbudiy jamiyat siyosiy tafakkurini yangilanish uchun mamlakatda keng ko'lamli islohotlar o'tkazish lozimligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda alloma insonni zamon va madaniyatdan xabardor bo'lishi uchun matbuot va teatr zarurligini yoqlab chiqadi. Behbudiy o'zbek dramaturgiyasining birinchi "Padarkush" dramasi, ayni shu maqsadda yaratilib, jaholat va nodonlik oqibatlarini ochib beradi. Xullas, Behbudiy jamiyat mafkurasini shakllantirishda milliy qadriyatlarni asragan holda rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqadigan mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash yo'lida o'zining beqiyos xizmatini ko'rsatgan.

Abdulla Avloniy (1878-1934 yy) jamiyat tafakkurini ma'rifat va tarbiya orqali yuksaltirish lozimligi, tarbiya yoshlarda bilim, axloqiy fazilat va yaratuvchanlik xislatlarini shakllantiruvchi vosita ekanligini uqtiradi. Xususan, uning "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ludur" [5], – degan so'zlari tasdiqlaydi. Bugungi davrda allomaning jamiyat ongini ma'rifiy jihatdan yuksalishi va barkamol avlodni milliy – axloqiy tarbiya ruhida kamol toptirish bu jamiyat rivojining muhim omillardan biri ekanligi haqidagi qarashlari ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotmagan.

Jadidchilik harakatining nazariy asoschilaridan biri Abdurauf Fitrat (1886-1938 yy) tomonidan ilgari surilgan taraqqiyparvarlik g'oyalari, uning ibratli siyosiy faoliyati va fuqarolik jasorati faqatgina olim yashab ijod etgan davr uchun ahamiyat kasb etmay, hozirgi davr uchun ham o'ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo'lib kelmoqda. Fitrat butun umri davomida Turkistonning ozod va mustaqil bo'lishi uchun ilm-ma'rifatni targ'ib qilganligini uning "Islohot va Buxoro" dasturini ishlab chiqishda yetakchilik qilganligi isbotlaydi. U jamiyat tafakkurini o'zgaritish yo'lidan borib, bunda xalq orasida ma'rifat tarqatishni, maktab va oliy o'quv yurtlarini isloh qilish zarurligini uqtiradi: "Bas, ma'lum bo'ladiki, bani Odam ibtidodan to hozirgi kungacha taraqqiy qilib kelgan va taraqqiy qiladi ham. Shunday qilib, odamda hayot g'oyasi bor ekan, ya'ni hazrati Xoliqi hakim insonlar uchun bir baland martabani va bir a'lo manzilni ko'rsatgan ekan, inson ham unga qarab harakat qiladi, taraqqiy etadi" [6].

Cho'lpon (1897-1938 yy) milliy uyg'onish harakatida o'chmas iz qoldirib, Turkistonda hurfikrlikka erishish va milliy tafakkurni yuksaltirishda adabiyotning beqiyos ahamiyatga ega ekanligini qayd etgan. Shuning uchun u: "Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'lmag'an va adabiyotining taraqqiysiga chalishmagan va adiblar yetishdirmag'an millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydin, fikrdan mahrum qolub, sekin-sekin inqiroz bo'lur. Muni inkor qilib bo'lmas. Inkor qilg'an millat o'zini inqirozda ekanun bildirur!" [7]. Xullas, Cho'lpon jamiyat tafakkurini yuksaltirish yo'llarini tahlil qilish orqali adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimlarni oshirishga va buni butun jamiyat hayotiga targ'ib qilishga harakat qilgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931 yy) jamiyat siyosiy ongini yuksaltirish masalasiga to'xtalar ekan, bu borada ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, ta'lim-tarbiya – milliy g'oya va milliy o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurni, mustaqil fikrni shakllantirish vositasidir. "Tarbiyali bola ulug'larni izzat va hurmat qilur. O'zi barobarig'a yaxshi muomala qilur. Va o'zidan kichiklarga shafqat va marhamat qilur. Har kimning qadrini bilur. O'zidan rozi qilmoqg'a harakat qilur. Qo'lidan kelganicha boshqa insonlarga yordam berur..." [8]. Demak, mutaffakir jamiyat taraqqiyotida ilm-ma'rifat rolini e'tirof etib, Turkiston xalqini ilm-fan yutuqlaridan bahramand bo'lishi jamiyat ideosferasi taraqqiyotiga xizmat qilishini e'tirof etadi.

Davlat va jamoat arbobi Fayzulla Xo'jayev (1896-1938 yy) tomonidan ilgari surilgan g'oya va islohotlar hozirgi davrda buyuk allomalar, aziz-avliyolar merosini, atoqli davlat arboblari, yengilmas sarkardalar, zamondoshlarimiz jasoratini yoshlarga yetkazishda, ularning qalbida Vatanga sadoqat, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirishda hissa qo'shgan. F.Xo'jayev 1913-yilda jadidlar harakatiga qo'shilib, Buxoroda demokratik harakat jamiyat siyosiy ongini o'zgartirmasdan turib bo'lmasligini anglab, aholi o'rtasida bilim, ma'rifat va madaniyat tarqatish uchun o'z kuch-g'ayratini ayamadi. Jumladan, F.Xo'jayev tomonidan ishlab chiqilgan 5 yillik reja asosida xalq maorifi sohasida bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni ilgari surdi [9].

Xulosa va takliflar. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, buyuk ma'rifatarvarlarning jamiyat siyosatini yangilanish, mafkura va mafkuraviy faoliyatni tizimli yo'lga qo'yishga oid qarashlari XX asr boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ko'ra ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Keltirilgan ushbu asoslar shundan dalolat beradiki, jadidlar hayot yo'li, ularning ma'naviy merosi Yangi O'zbekiston taraqqiyoti uchun yangicha siyosiy muhitni yaratib bermoqda. Professor Ismoil Saifnazarov asoslab berganidek, "Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan amaliy ishlar jadidchilik harakatining asosiy g'oya va maqsadlari bilan uyg'un va hamohangdir. Shu sababli biz tariximiz, xususan, ma'rifatparvar ajdodlarimiz merosini chuqur o'rganib, ulardan bugungi shiddatli zamon uchun ibratli xulosalar chiqarib yashashimiz zarur" [10]. Demak, ana shunday bilim va ma'rifat asosida tahsil olayotgan yoshlarni tarbiyalash va mana shu ikki tayanch ustun orqali mamlakatimizning rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishiga hissa qo'shishimiz mumkin. Bu milliy g'oyamizga ishonch va e'tiqodni mustahkamlaydigan innovatsion mexanizmlarni yaratishga asos bo'ladi. Ammo shuni yodda saqlash lozimki, biz faqatgina ajdodlarimiz yaratgan merosga mahliyo bo'lib, kelajakni yoddan chiqarmasligimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Normatov K. Ta'lim va fan ma'rifiy-siyosiy ehtiyojni ruhan poklash vositasi // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 25-may, №101 (890).
2. Ergasheva M. Jadidlar ilm olish huquqini tiklash yo'lida // Huquq va burch, №2, 2024. –B.16-18.
3. Mirziyoyev Sh.M. Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 12-dekabr, №258 (1047).
4. Маҳмудхўжа Бехбудий Танланган асарлар: Жилд I /Масъул муҳаррир: Баҳодир Каримов. – Тошкент: "Академ нашр", 2018. –Б.391.
5. Abdulla Avloniy. So'ylasang so'yla yaxshi so'zlardin. –Toshkent: "Ma'naviyat", 2022. –B.14.
6. Abdurauf Fitrat Najot yo'li. –Toshkent: "Ma'naviyat", 2022. –B.14-15.
7. Абдулҳамид Чўлпон. Асарлар: Жилд IV /Масъул муҳаррир: Д.Неъматова. –Тошкент: "Академ нашр", 2016. –Б.4.
8. Мунавварқори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. –Тошкент: "Маънавият", 2003. –Б.77.
9. Хўжаев Ф. Танланган асарлар: 2 том /Масъул муҳаррир: Саломова Ш.С. –Тошкент: "Фан", 1978. – Б. 289.
10. Saifnazarov I. Taraqqiyot yoxud tanazzul: qay biri tomonn borishimiz bugungi intilishlarimiz shiddatiga bog'liq // "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil 9-noyabr, № 233 (1022).
11. Turdiyev, B. (2021). Behbudi's views on the spiritual renewal of society. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz), 5(5).
12. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.